

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Geografiya kafedrası o'qituvchisi Xudoyorov Lochinbek
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi
2-kurs talabasi Alimova Go'zal
Shahrisabz State Pedagogical Institute
Teacher of the Department of Geography Khudoyorov Lochinbek
Department of Geography and Fundamentals of Economic Knowledge
2nd year student Alimova Go'zal

TINCH OKEANINING BIOLOGIK DUNYOSI
BIOLOGICAL WORLD OF THE PACIFIC OCEAN

Annotatsiya: Tinch okeani dunyosining eng katta suv havzasi bo'lib, uning biologik dunyosi o'zining betakror xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Tinch okeani o'simlik va hayvonot dunyosining o'ziga xosligi yoritilgan. Fitoplankton va dengiz suv o'tlaridan tortib, tropik marjon riflari va qutbiy hududlarning o'ziga xos ekotizmlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, baliqlar va chuqur suv osti jonzotlari kabi biologik turlar tahlil qilingan. Maqola Tinch okeanining ekologik ahamiyati, uning iqlimiga ta'siri va zamonaviy ekologik muommolarni ham qamrab oladi. Ushbu ish biologik xilma-xillikni saqlash va okean ekotizmlarini himoya qilishni ta'kidlaydi. Maqola nafaqat ilmiy ma'lumotlarga asoslangan, balki tabiiy boyliklarimizni asrashga undaydi.

Kalit so'zlar: Fitoplankton, baliq turlari, marjonlar, mikroorganizmlar, dengiz toshbaqalari, ekologik muvozanat.

Annotation: the largest body of water in the Pacific world, its biological world is characterized by its unique diversity. This article covers the identity of the Pacific flora and fauna. From phytoplankton and seaweed to tropical coral reefs

and the characteristic ecotism of polar regions has been documented. Biological species such as fish and deep-water amphibians have also been analyzed. The article also covers the environmental significance of the Pacific Ocean, its impact on its climate, and modern environmental treatment. This work emphasizes biodiversity conservation and the protection of oceanic ecotism. The article is not only based on scientific data, but also encourages us to preserve our natural resources.

Keywords: phytoplankton, fish species, corals, microorganisms, sea turtles, ecological balance.

Tinch okeani - dunyodagi eng katta va chuqur okean bo'lib, Yerdagi barcha suv havzalarining deyarli yarmini egallaydi. Bu ulkan suv havzasi o'zining ajoyib biologik xilma - xilligi bilan ajralib turadi. Tinch okeanining biologik dunyosi yer yuzidagi eng boy va murakkab ekotizmlardan biri hisoblanadi. Bu okean nafaqat ulkan geografik maydonga egaligi bilan boshqa suv havzalaridan farqlanadi. Tinch okeanidagi organizmlar moslashuvchanligi, yashash sharoitlari va biologik ahamiyati bilan diqqatga sazovor hisoblanadi.

Okeanning geografik xususiyatlari va iqlimi. Tinch okeani shimoldan janubga qariyb 15 ming kilometr masofaga cho'zilgan bo'lib, 180 million kvadrat kilometr maydonni qamrab oladi. Tinch okeanining iqlimlaridan masalan, *Tropik* mintaqa kengliklarida quruq va nam mavsumlar fasllarga qarab almashinadi. Dengiz sathining harorati doimiy ravishda yuqori bo'lib, bu hududda bug'lanish jarayonlari tez sodir bo'ladi. *Subtropik* va *mo'tadil* mintaqalarda iqlim nisbatan sovuqroq va namroq bo'lib, qish va yoz fasllari sezilarli ravishda farqlanadi. Okeanning sharqiy qismida sovuq omillar, masalan, Kaliforniya va Peru oqimlari iqlimga ta'sir qiladi. *Qutbiy* mintaqasi shimoliy muz okeaniga yaqin hududlar sovuq va muz bilan qoplangan. Janubiy yarimsharning qutbiy mintaqalari ham Antarktida ta'sirida qattiq sovuq iqlimga ega hisoblanadi. Bu esa turli xil flora va fauna turlarining yashashi uchun qulay sharoit yaratadi.

Biologik xilma-xillik. Tinch okeanining biologik xilma-xilligi millionlab organizmlar-mikroorganizmlardan tortib kitlargacha-turli ekotizmlarni qamrab oladi. Quyida uning asosiy biologik xususiyatlariga to'xtalamiz:

1. Suv o'simliklari va fitoplanktonlar. Fitoplanktonlar-okeanning oziq-ovqat zanjirining asosiy qismi. Ular fotosintez orqali kislorod ishlab chiqaradi va okean hayvonlari uchun asosiy oziq manbai hisoblanadi. Dengiz suv o'simliklari, masalan, dengiz o'tlarining turli xil turlari ham Tinch okeanida keng tarqalgan.

2. Baliqlar va boshqa dengiz hayvonlari. Tinch okeanida baliqlarning minglab turlari yashaydi. Salomon, orkinos, makrel kabi tijorat baliqlari muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Shuningdek, ahtapotlar, kalmarlar va kirill kabi umurtqasiz hayvonlar ham juda ko'p.

3. Sutmizuvchilar. Tinch okeani katta va kichik kitlar, delfinlar, dengiz sherlari, dengiz buqasi kabi sutemizuvchilarga boy. Ular okeanning muhim ekologik muvozanatini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

4. Marjon riflari. Tinch okeanining tropik hududlarida joylashgan bo'lib, ular dunyodagi eng boy ekotizmlardan biridir. Ular okean hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, sayyoramizning iqlimini boshqarishda ham katta rol o'ynaydi. Marjon riflari eng mashhurlari Buyuk to'siq rifi Avstraliya sohillari yaqinida joylashgan. Bu dunyodagi eng katta marjon rifi bo'lib, uzunligi 2300 kilometrdan oshadi. Ikkinchisi kichik Tinch okean riflari: Fiji, Samoa, Tongo va Fransiya Polineziyasi kabi hududlarda topilgan kichik, ammo biologik xilma-xil riflardir.



5. Qutbiy hududlar ekotizimi. Okeanning shimoliy va janubiy qutbiy hududlarida qalin muz qatlamlari ostida planktonlar, qutb baliqlari, tyulenlar va pingvinlar yashaydi.

6. Dengiz suv o'tlari. Okeanning qirg'oqbo'yi hududlarida dengiz suv o'tlari masalan, *Zostera* va *Posidoniya* kabi o'simliklar keng tarqalgan. Ular baliqlar va boshqa dengiz jonzotlari uchun yashash va ko'payish muhitini ta'minlaydi.

7. Chuqurliklardagi suv hayvonlari. Tinch okeanning chuqur suv qatlamlarida moslashgan g'aroyib jonzotlar masalan, angler baliqlar, biolumineskent meduzalar va boshqa o'ziga xos organizmlar yashaydi. Bu jonzotlar qorong'ulikda yashashga moslashgan bo'lib, maxsus yorug'lik chiqarish xususiyatiga ega.

Bulardan, masalan, Pelikan baliq yorug'lik manbasi hisoblanadi. Ular og'zidagi va qorin sohasidagi yorug'lik chiqaruvchi organlarga ega. Foydasi ovini jalb qilishda yordam beradi. 1200-3000 metr chuqurlikda yashaydi. Ikkinchisi Viperfish baliq uning yon tomonlarida va qorinida bioluminescent organlar joylashgan. Foydasi esa yirtqichlarni chalg'itishda va ov qilish uchun ishlatadi. 200-5000 metr chuqurlikda joylashgan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M. Tursunov. Tinch okeani tabiati. O'z.Res. FA nashriyoti. T.: 2002.
2. A. Kadirov. Dunyo okeanining tabiiy resurslari. T.: 2010.